



O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA OILA VA HUQUQ

Ikromaliyeva Saodatoy Shuhratbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6664087>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

oila, nikoh, onalik va bolalik, xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faollik, keksalarni ijtimoiy himoya qilish, oila a'zolarining o'zaro huquq va burchlari.

ABSTRACT

Jamiyat oiladan boshlanadi. Oilalar tinch bo'lsa davlat har tomonlama rivojlanishga erishadi. Ushbu maqola yurtimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyaning oilaviy huquq va majburiyatlarga oid qismlari tahliliga bag'ishlanadi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila masalalari hamisha davlatning diqqat-e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo'lgan Qomusimiz – Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg'u berilgan bo'lib, alohida bob (XIV bob) oila masalasiga ajratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat va an'analарimizdan ayonki, oila azal azaldan muqaddas qo'rg'on sanalgan. Islom dinining asosiy qomusi bo'lmish Qur'oni Karim va Hadisu shariflarda ham oilaga katta e'tibor berilib, oilani qanday tashkil etish, uning boshlig'i va a'zolarining huquqlari, farzandlar tarbiyasi, bir so'z

bilan aytganda oilaviy hayotning barcha masalalari atroflicha hal etilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bu – oiladir". Darhaqiqat, inson oilada dunyoga keladi, ulg'ayib kamol topadi. Eng avvalo oila mustahkam, tinch bo'lsa, jamiyat barqaror bo'ladi. Agar oila mustahkam bo'lmasachi, albatta bu jamiyatning axloqiy va ma'naviy negiziga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu sababli huquqiy – demokratik davlat tuzish, farovon hayotni ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan oilaviy munosabatlar huquqiy tartibga solingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jumladan, Konstitutsiyamizning 63 – moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat



muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deb yozilgan. Ushbu Konstitutsiyaviy qoidadan kelib chiqib, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Oila" kodeksining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasida oila, onalik va bolalik davlat himoyasidadir" deb ko'rsatilgan.

Oilaning asosini nikoh tashkil qiladi. Shuning uchun nikoh masalasiga o'ta mas'uliyat bilan qarash lozim. Zero, M.S.Vosiqovanning "Oila va qonun" nomli kitobida "nikoh oila asosi bo'lganligi uchun uning to'g'ri hal qilinishi davlat uchun ham, jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega" deyilgan.

"Oila" kodeksining 13-moddasi mazmuniga ko'ra faqat FHDYO organlarida tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanadi va u er-xotin, farzandlar uchu huquq va burchlar keltirib chiqaradi. 14-15 moddalariga muvofiq, nikoh ixtiyoriy ravishda nikoh yoshiga yetgandan so'ng tuziladi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdagi O'RQ-558-sonli Qonuniga ko'ra nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh qilib belgilandi.

Konstitutsiya va u asosida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlardagi oila va nikoh to'g'risidagi ushbu normalarni buzish huquqiy choralar ko'rilishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 473-moddasiga ko'ra (nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) ma'muriy hamda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1251 - moddasiga ko'ra nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, jinoyat qonunchiligining V bobida Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlarga nisbatan qo'llaniladigan

javobgarlik hamda jinoiy sanksiyalar ko'rsatib o'tilgan:126-modda (ko'p xotinli bo'lish), 128, 1281,129- moddalar (16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish va unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish), shuningdek,136-modda (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish).

Konstitusiyaning 64 - moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar",shuningdek, 66 - moddasida "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlirlar" degan normalar oilada ota - ona va farzandlarning o'zaro mas'uliyati va burchlarini huquqiy tartibga solish bilan birga, ularning ijtimoiy huquqlarini himoya qiladi. Ushbu Konstitutsiyaviy normalarni buzish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122 - 123 moddalariga ko'ra "Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash", "Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash" kabi normalar bilan JK ning 17 - moddasiga ko'ra 18 yoshdan javobgarlik belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy Qomusimiz oila va oilaviy munosabatlarni himoya qiluvchi muhim hujjat hisoblanadi. Konstitusiyaning 64 - moddasi ikkinchi qismiga ko'ra "Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota- onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi".

Shuningdek, Konstitusiyaning 65 - moddasida farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklari, onalik



va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda oila va nikoh munosabatlarini yanada mustahkamlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham oila va uning a'zolarini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga xizmat qilayotganligini aytib o'tish joiz.

Oila va nikoh munosabatlarini yanada mustahkamlash sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi " Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab – quvvatlash hamda oila va xotin – qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5938-sonli Farmoni hamda 2020 yil 18 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani

qo'llab quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4602-son qarorining qabul qilinganligi ham mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko'taruvchi muhim qadam bo'ldi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi globallashuv davriga kelib O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda deb bilmoqda, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Davlat va jamiyat taraqqiyotida "Oila - jamiyat va davlat himoyasida" Konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib qilish va jamiyatga singdirish masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent. O'zbekiston, 2020. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-songa ilova. <https://lex.uz/docs/-104720>
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 3-son. <https://lex.uz/docs/-97664>
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 1-son. <https://lex.uz/docs/-111453>
5. Vosiqova M.S. Oila va qonun.- - Toshkent;1993.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5216-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.08.2021-y., 07/21/5216/0783-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5569689>